

## WEB SAHIFALARDA CSS DASTURLASHNING O‘RNI

**Nurullayeva Shirinabonu Ne‘matullayevna**

*Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada CSSning o‘rni, ishlatilish turlari, vazifalari tushuntirib o‘tilgan, misollar yordamida tafsiflangan. Shu bilan birga CSSning Html bilan bog‘liqligi ham ta’kidlangan*

**Kalit so‘zlar:** *Web sahifa, web dastur, CSS, Html, Markup Language, JavaScript*

CSS ning o‘rni web sahifalarda ekan, birinchi navbatda web sahifa nima degan savol tug‘iladi. Web sahifalar bizga ko‘rish uchun xizmat qiladi, ya’ni biz yozgan kodlarning brauzerdagi ko‘rinishi. Web sahifalar uchta qismdan tashkil topadi: Html, CSS, JavaScript. Html sayt asosi, CSS uni dizaynini ta’minlasa, JavaScript uni harakatga keltiradi.

Xo‘sh, CSS nima? Bu savolga javob berish uchun dastlab shu atamani yoyishimiz kerak. CSS-Cascading Style Sheets ya’ni “Cascading”- tartibli, “style”-ko‘rinish, “sheets”-varoqlar. Dizingning ko‘rinishi hisoblanadi. Html bilan birga ishlaydi.

Html nima unda? Html-[HyperText Markup Language](#) ya’ni belgilash tili bu. Belgilash tili bo‘lganligi uchun Markup Language deb ham ataladi. Web sahifalarni yaratadigan til. Htmldan foydalanib sayt yaratar ekanmiz, albatta teglardan foydalanamiz. Html bilan sayt va dasturlar yaratish jarayonida biz matn, rasm, video, linklar, sarlavhalardan foydalanishimiz mumkin.

CSS 1997-yil ishlab chiqilgan. Birinchi chiqqanda CSS ni hamma brauzerlar ham tushunmagan. Hozirda istagan brauzerda ishlasak bo‘ladi. CSS web sahifalarni bezash uchun ishlatilar ekan, unda ixtiyoriy bezaklar berishimiz mumkin, har bir bo‘lak ranglaridan boshlab, soyalar, radiuslar orqali kichik-kichik detallargacha ishlov berish imkoniga ega bo‘lamiz. Bundan tashqari, layoutlarn ham CSS bilan ishlov bersak bo‘ladi, ularning joylashuv o‘rni, margin, paddinglarning qancha masofada turishi kabi keng imkoniyatlarga ega. CSS ning yana bir qulay tomini shundaki, biz yaratgan sahifamizni ko‘rmoqchi bo‘lsak, turli vazuyatlarda turli xil qurilmalardan foydalangan holda ochamiz, shu o‘rinda teshishli CSS kodi berilmagan bo‘lsa, dasturni ochganimizda tartibsiz ko‘rinishni guvohi bo‘lamiz.

Html va CSS bir -biri bilan bog‘liq. CSS Html siz ishlay olmaydi, lekin Html CSSsiz ishlashi mumkin, shunday ishlagan taqdirda, biz yaratgan dastur yoki sahifa zerikarli bo‘lib qoladi. CSS bilan ishlashda ham mahorat kerak, chunki dizaynni tog‘ri tanlay olish foydalanuvchi kayfiyatiga ta’sir qiladi, shuning uchun iloji boricha bir -biri bilan uyg‘unlikda keladigan ranglardan foydalanish kerak.

CSS fayli ochayotganimizda albatta fayl nomidan keyin .css deb yozishimiz kerak. Bu amalni bajarganda so‘ng, ochgan faylimizda CSS belgisi rasmi turadi. CSSda teg nomi, xossa va qiymati mavjud. Namuna:

```
1  body{
2    background-color: #f8f8fa;
3    font-family: Arial, sans-serif;
4  }
```

Kod tahlili: body-teg nomi, background-color xossa va kod orqali berilgan rang uning qiymati. Bu yerda body dagi rang to‘la orqa fonni oladi. Font-family shrift turini belgilaydi, ya’ni Arialni tanla, bo‘lmasa sans-serifdan foydalan shaklida.

CSSni uch xil shaklda qo‘llasak bo‘ladi: inline, interline, extreline. Inline shakl bu faqat bitta tegga ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun murakkab dastur yaratmoqchi bo‘sal bu noqulay, ham qayta-qayta yozishga tog‘ri keladi murakkablik va noqulaylik tug‘diradi. Shunday ko‘rinishga ega:

```
1  <head>
2    <meta charset="UTF-8">
3    <title>Table</title>
4  </head>
5  <body style="margin: auto; font-family: Arial; width: 80%;">
6    <header style="background: #cce5ff; padding: 20px; text-align: center;">
7      &lt;header&gt;
8    </header>
9    <nav style="background: #d4edda; padding: 15px; text-align: center;">
10     &lt; <h1>Portfoliya</h1>&gt;
11  </nav>
```

Bu kodda body va nav qismlariga alohida-alohida, har bir teg Ichida style berilayotganini ko‘rishimiz mumkin

Ikkinchi ko‘rinish interline ko‘rinishdir. Bu header qism Ichida style tegidan foydalangan holda yoziladi. Oddiyroq saytlar tuzishga yaxshi, murakkab darajalar uchun bu ma’qul variant emas. Aks holda, kod uzun va tartibsiz bo‘ladi. Namuna:

```
1 <head>
2   <title>grid</title>
3   <style>
4     body{
5       font-family: sans-serif;
6       width: 90%;
7       margin: 0 auto;
8     }
9     .grid-container{
10      display: grid;
11      grid-template-columns: auto auto auto auto ;
12      grid-template-rows: 150px 150px;
13      padding: 20px;
14      margin: 10px;
15      background-color: green;
16      border-radius: 10px;
17    }
18
19   </style>
20 </head>
```

Bu kodda barcha CSS kodlari style tegi Ichida, head qismida yozilganini ko‘rishimiz mumkin.

Exterline usul murakkab saytlar tuzishga yaxshi. Bu usuldan foydalanganda biz alohida fayl ochib olamiz. Shunda tartibli bo‘ladi va biz istagan vaqtimizda uni oson almashtirishimiz mumkin. Biz CSS faylini alohida ochar ekanmiz, bu ishlashi uchun, albatta uni Html fayli bilan bog‘lashimiz kerak. Quyidagicha bog‘laymiz:



```
1 <!DOCTYPE html>
2 <html>
3   <head>
4     <meta charset="UTF-8">
5     <title>CSS</title>
6     <link rel="stylesheet" href="style.css">
7   </head>
```

Bu yerda biz e'tibor berishimiz kerak bo'lgan narsa, CSS faylini to'g'ri bog'lash, uni qayerda turganligini tog'ri ko'rsata olish kerak, shunda bizning ishimiz ishlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.w3schools.com/css/default.asp>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/CSS>
3. [https://youtu.be/KPPhQ0F-SDY?si=scHj\\_i3AUU5HBdk-](https://youtu.be/KPPhQ0F-SDY?si=scHj_i3AUU5HBdk-)